
O’tkir Hoshimov ijodiga bag’ishlangan respublika ilmiy konferensiyasi tashkil etildi

Taniqli o‘zbek yozuvchisi va jamoat arbobi O‘tkir Hoshimov. Bu yozuvchi haqida gap ketganda ko’z o’ngimizda birinchi navbatda o’sha mashhur “Dunyoning ishlari”, “Ikki eshik orasi” asarlari gavdalanadi. Darhaqiqat, yozuvchi o’zidan katta ijodiy meros qoldirgan.

O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O’zbek til, adabiyoti va folьklori institutida “O’tkir Hoshimov ijodining ma’naviy-ma’rifiy ahamiyati” mavzuidagi respublika ilmiy konferensiya tashkil etildi. Unda taniqli adabiyotshunos olimlar, doktorantlar, oliy ta’lim muassasalari tadqiqotchilari ishtirok etdi.







Konferensiyada O’tkir Hoshimov ijodining turli qirralari, yozuvchi ijodining bugungi o’zbek adabiyotida tutgan o’rni, davr muammolarining yozuvchi ijodida aks etishi, yozuvchining hikoya, qissa va romanlaridagi milliy kolorit, do’stlik, sevgi va sadoqat, xalqlar do’stligi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, diniy ma’rifiy, satirik va yumaristik jihatlari, obrazlar tizimi kabi masalalar aks etgan ma’ruzalar tinglandi va o’zaro fikr almashildi.